

**REY BREDBERI IJODIDA BADIY PSIXOLOGIZM VA BOLALIK
RETROSPEKTIVASI****Ko'chimov Ulug'bek Qo'chqarovich,***Alfraganus universiteti Xorijiy tillar kafedrasini mudiri,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent**u.kuchimov@afu.uz**<http://orcid.org/0000-0001-7356-4809>***DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.18785380>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Rey Bredberining "Momoqaymoq sharobi" asari misolida inson ruhiy olami, xotira va retrospektiv tahlil masalalari o'rganiladi. Asardagi bolalik olami va hayot mohiyatini anglash jarayonlari o'zbek adabiyotshunosligidagi ruhiy dunyo tahlili mezonlari asosida tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Rey Bredberi, retrospektiva, badiiy psixologizm, xotira, bolalik, ramziylik, estetik ideal, ma'naviy uyg'onish, Duglas Spolding.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы духовного мира человека, памяти и ретроспективного анализа на примере произведения Рэя Брэдбери "Вино из одуванчиков". Процессы осмысления мира детства и сущности жизни в произведении исследованы на основе критериев анализа духовного мира в узбекском литературоведении.

Ключевые слова: Рэй Брэдбери, ретроспектива, художественный психологизм, память, детство, символичность, эстетический идеал, духовное пробуждение, Дуглас Сполдинг.

Abstract. This article explores the human psyche, memory, and retrospective analysis through the example of Ray Bradbury's "Dandelion Wine". The world of childhood and the process of understanding life's essence depicted in the work are examined based on the criteria for analyzing the spiritual realm in Uzbek literary criticism.

Keywords: Ray Bradbury, retrospective, artistic psychologism, memory, childhood, symbolism, aesthetic ideal, spiritual awakening, Douglas Spaulding.

Kirish. XX asr jahon adabiyotining yirik vakili Rey Bredberi nafaqat ilmiy-fantastika janrining ustasi, balki inson ruhiyatining nozik qatlamlarini kashf etuvchi faylasuf yozuvchi sifatida ham e'tirof etiladi. Uning "Momoqaymoq sharobi" asari muallifning individual xotiralari asosiga qurilgan bo'lib, unda borliqning mohiyati, o'tkinchi lahzalarning qadri va shaxsning o'zligini anglashi masalalari markaziy o'rin tutadi. Badiiy asar tahlilida, Bahodir Karim ta'kidlaganidek, yozuvchi qo'llagan "ruhiyat alifbosi"ni anglash asarning tub mohiyatini ochishga xizmat qiladi [4.4].

Adabiyotlar tahlili. Rey Bredberi ijodi, xususan, Dandelion Wine romani adabiyotshunoslikda badiiy psixologizm, ramziylik va xotira fenomeni doirasida keng tadqiq etilgan. O'zbek adabiyotshunosligida H.Umurov, D.Quronov, B.Karim hamda B.Sarimsoqov kabi olimlarning badiiy matn tahlili, ruhiy dunyo talqini va estetik mezonlarga oid ishlari asardagi ichki kechinmalar va kompozitsion qurilishni tahlil etishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, D.Quronovning ruhiy dunyo va xarakter evolyutsiyasi haqidagi qarashlari qahramon ongidagi o'zgarishlarni ochishda metodologik ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, Bredberi ijodiga oid tadqiqotlarda

retrospektiva va bolalik xotirasi yozuvchining estetik idealini ifodalovchi markaziy unsur sifatida baholanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada qiyosiy-adabiy, psixologik hamda germenevtik tahlil metodlaridan foydalanildi. Asar matni retrospektiv yondashuv asosida o'rganilib, badiiy psixologizm unsurlari ichki monolog, ramziy detal va kompozitsion qurilish orqali tahlil qilindi. Shuningdek, o'zbek adabiyotshunosligidagi ruhiy dunyo tahlili mezonlari asosida interpretativ yondashuv amalga oshirildi.

Tahlillar va natijalar. "Momoqaymoq sharobi" romani an'anaviy syujet chizig'idan voz kechib, insoniy tuyg'ular va kechinmalar oqimiga asoslanadi. Asarning bosh qahramoni o'n ikki yoshli Duglas Spoldingning bir yoz davomida kechirgan ruhiy evolyutsiyasi badiiy psixologizmning yuksak namunasi. D.Quronov nazariyasida ta'kidlanganidek, xarakterlar psixologizmi qahramonning o'z-o'zini anglashi jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi [11.45]. Duglasning asar boshidagi "Men tirikman!" degan hayajonli kashfiyoti shunchaki fiziologik holat emas, balki koinot bilan uyg'unlikni his etishdir. Biroq, bu quvonch ko'p o'tmay "hamma bir kun o'lishi kerak" degan og'riqli haqiqat bilan to'qnashadi. Bredberi psixologizmi qahramonning tashqi harakatlarida emas, balki uning ichki dunyosidagi keskin o'zgarishlarda namoyon bo'ladi. 12 yoshli Duglas Spoldingning o'zini tirik ekanligini anglab yetishi – asarning markaziy psixologik nuqtasidir. "Men tirikman! – deb o'yladi Duglas. U o'zidan qandaydir qon isi, iliqlik sezdi. Go'yo bu kashfiyot uni butunlay o'zgartirib yuborgandek edi" [12.76]. Bu yerda muallif ichki monolog va sezgi a'zolari orqali personajning psixologik holatini tasvirlaydi. Duglasning dunyoni qabul qilishi bolalarcha soddalikdan falsafiy chuqurlikka o'tadi. Asar sarlavhasidagi "Momoqaymoq vinosi" – bu o'tmishni, yozni va bolalikni saqlab qolish ramzi sifatida tahlil qilinadi. Bredberi retrospektivani shunchaki xotira sifatida emas, balki metofora sifatida qo'llaydi. Har bir shisha vino – yozning bir kuni, bir lahzasi. "Momoqaymoq vinosi. Bu so'zlar tilda yozning iliq ta'mini qoldiradi. Bu – shishaga solib qo'yilgan va qishning sovuq kunlari uchun asralgan yoz faslidir" [12.91].

Bu retrospektiv usul o'quvchini qahramon bilan birga o'tmishning beg'ubor lahzalariga qaytaradi va yo'qotilgan "jannat" (bolalik) hissini uyg'otadi.

Bredberi bolalikning nafaqat quvonchini, balki uning qo'rquvlarini ham mahorat bilan chizadi. Duglas "Men tirikman" degan kashfiyotdan so'ng, muqarrar ravishda "Men bir kun o'laman" degan og'riqli haqiqatga duch keladi. "Agar hozir hamma narsa shunchalik yaxshi bo'lsa, nega bir kun kelib hammasi tugashi kerak? Nega odamlar qariydi?" [12.77]

Badiiy tahlil mezonlariga ko'ra, asar sarlavhasidagi "momoqaymoq sharobi" ramzi vaqtni muhrlash va xotirani saqlash vositasi sifatida talqin qilinadi. H.Umurov yozuvchi mahorati haqida to'xtalar ekan, asardagi har bir detal, jumladan, ramziy obrazlar muallif niyatini ochishga xizmat qilishi lozimligini uqtiradi [1.15]. Har bir shisha sharob – bu

muayyan kunning tafti, hidi va his-tuyg'usi muhrlangan xotira omboridir. Bredberi o'tmishni qayta tiriltirish orqali insonni bugungi kun qadriga etishga chorlaydi.

Asarning kompozitsion qurilishida "Baxt mashinasi" epizodi alohida ahamiyatga ega. Leo Auffmann timsolida Bredberi inson baxtni tashqaridan, sun'iy vositalardan emas, balki o'z oilasi va oddiy kundalik hayoti ichidan qidirishi kerakligi haqidagi falsafiy g'oyani ilgari suradi. D.Quronov kompozitsion tafakkur haqida so'z yuritar ekan, asardagi voqealar zanjiri kitobxonni muayyan estetik xulosaga yetaklashi kerakligini ta'kidlaydi [6.22]. Duglasning "Baxt mashinasi" aslida o'zining uyi, ukasi va yaqinlari ekanini anglab etishi – asarning g'oyaviy cho'qqisidir.

Retrospektiv tahlil asarda nafaqat qahramon, balki muallif pozitsiyasini ham belgilaydi. B. Sarimsoqov mezonlariga ko'ra, bunday asarlar insonning ma'naviy olamini boyitishga xizmat qiluvchi yuksak badiiylik namunasidir [8, 126]. Duglas va uning do'stlari orqali bolalikning beg'ubor dunyosi hamda kattalar olamidagi "o'lim", "ayriliq" va "keksalik" kabi murakkab tushunchalar o'rtasidagi ziddiyat ochib beriladi. Bu ziddiyat Duglasni bolalikdan ma'naviy yetuklik sari yetaklaydi.

Asarda vaqt chiziqli emas, balki hissiy xarakterga ega. Bredberi keksa qahramonlar (masalan, polkovnik Frili) orqali "Vaqt mashinasi" tushunchasini beradi. Polkovnikning hikoyalari orqali bolalar o'tmishga – retrospektivaga sayohat qilishadi. *"Polkovnik Frili shunchaki qariya emas edi. U haqiqiy Vaqt mashinasi edi. U gapira boshlaganda, devorlar g'oyib bo'lar va biz 1870-yillarning chang ko'chalarida paydo bo'lardik"* [12.132].

Rey Bredberi "Momoqaymoq vinosi" asarida bolalikning nafaqat psixologik holatlarini, balki uning sehrli va mo'jizaviy tabiatini ham o'ta nafis tilda tasvirlaydi. Uning nazarida bolalik dunyoni bor ranglari va tovushlari bilan, hech qanday filtrlarsiz qabul qilish davridir. Duglas uchun sotib olingan yangi krossovkalar shunchaki kiyim emas, balki unga sehrli kuch va tezlik beruvchi qurol. Bu bolalikdagi buyumlarga jon bag'ishlash (animizm) psixologiyasini ko'rsatadi. *"Bu poyabzallar ichida kiyiklar yashirinib yotibdi, ular seni yerdan bir qarich ko'tarib, qalin o'tloqlar va daryolar uzra uchirib ketadi. Ularni kiyganingda, sen endi oddiy bola emassan, sen – shamolsan!"* [11.173]

Bredberi kattalar va bolalar dunyosi o'rtasidagi farqni bolalikning mo'jizaviyligini kattalarning " mantiqiy" va zerikarli dunyosiga qarama-qarshi qo'yish orqali tasvirlaydi. *"Kattalar va bolalar – bu ikki xil turdagi mavjudotlar. Ular bir-biri bilan urushmaydi, shunchaki ular turli sayyoralarda yashaydi"* [12.201]. Bredberi bu tasvirlar orqali "antropomorfizm" (narsalarni jonlantirish) usulidan foydalanadi. Bolalik retrospektivasi shunday qurilganki, o'quvchi voqealarga 12 yoshli bolaning "kattalashmagan", ya'ni hali hayratlanish qobiliyatini yo'qotmagan ko'zlari bilan qaraydi.

Bredberi asarlarida tabiat shunchaki voqealar sodir bo'ladigan fon emas, balki asarning faol ishtirokchisi, qahramonlarning ruhiy holatiga hamnafas bo'lgan tirik organizmdir. Duglas va uning ukasi Tom uchun tabiat bilan muloqot – bu dunyoni kashf

qilishning eng oliy shakli. Bolalar uchun tabiat bilan uygʻunlik – bu atrof-muhitdagi har bir detalni “oʻzini” qilishdir. Ular oʻt-oʻlanlar, daraxtlar va hatto yozgi yomgʻir bilan ham ichki, tilsiz bir muloqotga kirishadilar. Bu jarayon psixologiyada panpsixizm (hamma narsaning jonli ekanligiga ishonish) elementlarini eslatadi.

Duglas uchun yozgi oʻrmon shunchaki daraxtlar toʻplami emas, balki sirlar saqlanadigan ulkan maʼbad: *“U oʻrmon ichiga chuqurroq kirdi va toʻxtadi. Daraxtlar goʻyo nafas olayotgandek, yer esa uning oyoqlari ostida sekin urayotgan yurak kabi gupillardir. U oʻzini bu ulkan yashil dunyoning ajralmas bir boʻlagi, uning qon tomiridagi bir tomchi qon kabi his qildi”* [12.165]. Bredberi bolalik moʻjizasini tasvirlashda giperbola (mubolagʻa) va metaforadan samarali foydalanadi. Bolaning nigohida oddiygina momoqaymoqlar quyoshning yerga toʻkilgan parchalari boʻlib koʻrinadi. *“Momoqaymoqlar – bu yerda soatlab yonib turadigan kichkina quyoshchalar. Ularni terib, shishalarga qamab qoʻysang, qishning qahratonida ham uyingda yozning iliq nuri soʻnmaydi”* [12.36]. Tabiat bilan uygʻunlik asarda tovushlar orqali ham beriladi. Har bir tovush bolalik retrospektivasida alohida maʼno tashiydi: *“Dunyodagi eng goʻzal musiqa – bu yozgi oqshomda ayvonda oʻtirgan cha, uzoqdan kelayotgan chigirtkalar chirillashi va kattalarning past ovozdagi guringini tinglashdir. Bu – xavfsizlik va abadiy baxtning ovozi”* [12.58].

Bredberi tabiatni tasvirlashda sinesteziya (sezgilarni aralashtirish) usulidan foydalanadi: u tovushni “koʻradi”, rangni esa “eshitadi”. Masalan, quyosh nurining “baland ovozi” yoki oʻt-oʻlanlarning “yashil hidi” haqida yozadi. Bu uslub bolalikdagi his-tuygʻularning qanchalik oʻtkir va tiniq boʻlishini koʻrsatib beradi.

Xulosa. Rey Bredberining “Momoqaymoq sharobi” asari insonni yashashning har bir lahzasidan zavqlanishga va oʻzligini anglashga chorlovchi falsafiy asardir. Retrospektiv tahlil orqali muallif shaxsiy xotiralarni umumbashariy qadriyatlar darajasiga koʻtara olgan. Badiiy psixologizm va ramziylik uygʻunligi kitobxonni oʻz “ichki dunyosi”ga nazar tashlashga va hayotning har bir soniyasini “sharob kabi” asrab-avaylashga undaydi. “Momoqaymoq vinosi”da badiiy psixologizm qahramonning oʻzligini anglashi va oʻlim qoʻrquvini yengib oʻtishida koʻrinsa, bolalik retrospektivasi insoniyatning eng sof davrini muhrlash vositasi boʻlib xizmat qiladi. Bredberi uslubi oʻquvchining his-tuygʻulariga bevosita taʼsir qilib, uni oʻz bolaligiga qaytaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Umurov H. Badiiy ijod asoslari. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2001. – 120 b.
2. Badiiy matn tahlili: oʻquv-uslubiy majmua. – Buxoro, 2021.
3. Yoʻldoshev Q., Yusupov J. Badiiy tahlil asoslari. – Urganch, 2008.
4. Karim B. Ruhiyat alifbosi. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom, 2018. – 364 b.
5. Quronov D. Ruhiy dunyo tahlili. – Toshkent: Xazina, 1995.
6. Quronov D. Adabiyot va b. haqida. – Toshkent: Akademnashr, 2019.
7. Quronov D. Adabiy jarayonda “Mom sindromi”. – Toshkent, 2010.
8. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent: Bookmany print, 2022.
9. Quronov D. Mutolaa va idrok mashqlari. – Toshkent, 2013.

10. Quronov D. Nazariy qaydlar. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
11. Bradbury R. Dandelion Wine. – New York: Doubleday, 1957.
12. Bredberi R. Momoqaymoq. – T.: Sharq, 2012. – 256 b.

